

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

S.MAHMUDOVA	
“Turgʻunoy Egamberdiyeva – Fargʻonalik ayollarning gultojidir”	6
	PEDAGOGIKA
X.Kadirov, B.Xamdamov	
Oliy taʼlim tizimini rivojlantirishda media kompetentlikning dolzarbligi va ahamiyati	8
L.Yoʻldosheva	
Muzeylarda turli xil mashgʻulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish	13
M.Alimjanova	
Taʼlimning jarayonida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish usullari, metodi va vositalari	17
B.Xaydarov	
Odam tana tuzilishini tahlil qilish.....	23
G.Absalamova	
Mishel monten “tajribalar” asarida oilada farzand tarbiyasi tushunchasi.....	28
F.Mirzayeva	
Oiladagi shaxslararo munosabatlar – jamiyatning tinchlik garovi.....	32
	IQTISODIYOT
T.Xaydarov, B.Karimov	
Tadbirkorlik mahalladan boshlanadi	36
	FALSAFA, SIYOSAT
N.Hakimov, D.Amrudinova	
Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari.....	40
I.Raximov	
Oʻzbek mahallasi: tarix va hozirgi zamon koʻp millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning oʻziga xos xususiyatlari	48
R.Isamutdinov	
“Xavfsiz mahalla” tushunchasi va uning mohiyati.....	54
S.Xoliqov	
Oʻzbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining milliy xavfsizlikni taʼminlash boʻyicha vazifalarining oʻziga xos jihatlari	57
	TARIH
M.Xurramov	
1991 - 2016 yillarda Oʻzbekiston-Qozogʻiston munosabatlarida Markaziy Osiyo integratsiyasi muammolari	61
R.Arslonzoda	
Istiqlol yillarida Oʻzbekistonda arxiv ishi huquqiy asoslarining yaratilishi	69
I.Gʻulomov, Z.Kasimova	
Oʻzbekiston SSR aholisini roʻyxatga olish	76
Gʻ.Haydarov	
Fargʻona vodiysi aholisi ijtimoiy turmush sharoitlarini yanada yuksaltirishda halqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari tarixi	83
G.Dadamirzayeva	
Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Fargʻona viloyati artellarining faoliyati.....	88
A.Abdovali	
Shokir Sulaymon yurt taraqqiyotiga xizmat qilgan Turkiston yoshlarining faol vakili.....	93
N.Komilov	
Turkiston muxtoriyati bosh vaziri oʻrinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	98
M.Darmonova	
“Katta qirgʻin”ning yosh qurboni.....	103
L.Sokolova	
Fargʻona vodiysi: ustozga bagʻishlanish marosimining shakllari	107
O.Zaripov	
“Tarjimon” gazetasida Turkistonda yer-suv masalalarining yoritilishi	113

TURKISTON JADIDLARINING IQTISODIY QARASHLARI

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ТУРКЕСТАНСКИХ ДЖАДИДОВ

ECONOMIC VIEWS OF THE TURKESTAN JADIDS

Hakimov Nazar Hakimovich¹, Amridinova Dilrabo Tursunovna²¹Hakimov Nazar Hakimovich

– Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Ijtimoiy gumanitar va aniq fanlar” kafedrası mudiri Fasafa fanlari doktori, professor.

²Amridinova Dilrabo Tursunovna

– Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Ijtimoiy gumanitar va aniq fanlar” kafedrası professori Fasafa fanlari doktori.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Turkiston jadidlari namoyondalarining iqtisodiy qarashlari tahlil qilingan. Jadidlarning milliy uygʻonish va iqtisodiy yuksalish konsepsiyasi, jamiyatni iqtisodiy yuksaltirish uchun yoshlarga zamonaviy kasblarni oʻrgatish, hunarmandchilik maktablarini tashkil etish kabi iqtisodiy gʻoyalarning mazmuni, mohiyati va konseptual ahamiyati tadqiqi asosiy oʻrin egallaydi. Mualliflar jadidlar tomonidan ilgari surilgan, yoshlarni rivojlangan xorijiy davlatlarda dunyoviy ilm olishi, yetakchi universitetlarda oʻqishi va kasbiy malakasini oshirish borasidagi fikrlarining nazariy va amaliy jihatlari oʻrganilgan. Maʼrifatparvar jadidlarning Vatan, ona yerni eʼzozlash, ushbu resurslardan milliy taraqqiyot uchun samarali foydalanish haqidagi qarashlari, mamlakatni iqtisodiy rivojlantiruvchi omillar haqidagi fikrlarining futurologik jihatlari tadqiq etilgan.

Annotatsiya

В данной статье анализируются экономические воззрения туркестанских джадидов. Изучение содержания, сущности и концептуального значения экономических идей джадидов, таких как концепция национального пробуждения и экономического роста, обучение молодежи современным профессиям для экономического развития общества, создание ремесленных школ. Авторы исследуют теоретические и практические аспекты идей, выдвинутых джадидами, относительно светского образования молодежи в развитых странах, ее обучения в ведущих университетах, профессионального развития. Изучаются футурологические аспекты взглядов просвещенных джадидов на уважение к Родине, эффективное использование этих ресурсов для национального развития, факторы экономического развития страны.

Abstract

This article analyzes the economic views of the Turkestan Jadids. The study of the content, essence and conceptual significance of the economic ideas of the Jadids, such as the concept of national awakening and economic growth, training young people in modern professions for the economic development of society, the creation of handicraft schools. The authors explore the theoretical and practical aspects of the ideas put forward by the Jadids regarding the secular education of young people in developed countries, their education at leading universities, and professional development. The futurological aspects of the views of enlightened Jadids on respect for the Motherland, the effective use of these resources for national development, and the factors of the country's economic development are studied.

Kalit soʻzlar: Turkiston, jadid-maʼrifatparvarlar, iqtisodiy-ijtimoiy qarashlar, yoshlar, ilm-fan, hunarmand maktablar, A. Fitrat, Mahmudxoʻja Behbudiy.

Ключевые слова: Туркестан, джадиды-просветители, социально-экономические взгляды, молодежь, наука, ремесленные школы, А. Фитрат, Махмудходжа Бехбуду.

Key words: Turkestan, Jadids-enlighteners, socio-economic views, youth, science, craft schools, A. Fitrat, Mahmudhoja Behbudi.

KIRISH

Jahonda uchinchi ming yillik global iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va maʼnaviy sohalardagi yangilanishlar bilan bir qatorda, tinchlik va barqaror taraqqiyotga tahdid soluvchi jarayonlar bilan boshlandi. Shu munosabat bilan taʼkidlash lozimki, iqtisodiy taraqqiyotni taʼminlayotgan, bir tomondan raqamli texnologiyalarning rivoji inson aqli imkoniyatining cheksizligini namoyon etsa, ikkinchidan insoniyat oʻz aqli bilan yaratilgan, jaholatga, kulfatlarga xizmat qiladigan kashfiyot va ixtirolarning qurboniga aylanmoqda. Shu bois, jahonda barqaror tinchlikni, halqlar farovonligini taʼminlashga xizmat qiladigan, barqaror iqtisodiy rivojlanish, muayyan darajada uning yechimini topish uchun, iqtisodiy gʻoyalar, ilgʻor nazariyalar tarixiga murojaat etish, buyuk mutafakkirlar fikrlarini, jamiyat yangi taraqqiyot bosqichi ruhi, talablari, rivojlanish tendensiyalari nuqtai nazaridan chuqur oʻrganish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatda innovatsion iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda oʻzbek halqi ilmiy merosi tarixida yosh avlod vakillari, boʻljak iqtisodchilar oʻrganishi uchun arzigulik

manbalar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaydiki, "Mahmudxo'ja Behbudiy va Avloniy, Hamza va Munavvarqori, Fitrat va Cho'lpon, Abdulla Qodiriy va Usmon Nosir kabi minglab jadid bobolarimizni uyg'otdi. Ularning halq erkinligi va saodati yo'lidagi ezgu fikr va ezgu so'z va ezgu amallari uchun ulkan ma'naviy omil bo'ldi" [1.18] Shunday ilmiy meros, konseptual fikrlar majmuasiga jadidlarning ilmiy, iqtisodiy mazmun kasb etadigan asarlari, faoliyati misol bo'la oladi. Ya'ni, jadidlarning ilmiy merosidan milliy taraqqiyotni yanada mustahkamlash, zamonaviy iqtisodiyot tarmoqlarini ravnaq toptirish, jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichidagi belgilangan strategik vazifalarni amalga oshirishda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkin.

O'zbek halqi insoniyat tamaddunida IX-XII asrlarda birinchi, XIV- XVI asrda ikkinchi Renessans rivojiga, provard natijada insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaydiki, " Mamlakatimizda uchinchi Renessansni XX asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Ular "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas", degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bildilar. [2]. Mamlakat rahbarining bunday strategik ahamiyat kasb etadigan fikri jadidchilarning jamiyat taraqqiyoti, mamlakat rivoji, mintaqadagi davlatlar orasida o'zining munosib o'rnini topishi, ilm-fani, madaniyati tarixidagi roliga, jamiyatshunoslik rivojidagi o'rniga berilgan metodologik bahodir. Jadidlarning shijoatli, ilmiy asoslangan, jahondagi ilg'or taraqqiyotga erishgan davlatlar tajribasiga tayanilgan fikrlari Turkistonlik ziyolilar, tadbirkorlar orasida jamiyat taraqqiyotiga innovatsion yondoshuvni shakllantirishga xizmat qilgan. Jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyati, bunday intilishlarning ilg'or fikrli vatandoshlar tomonidan qo'llab quvatlashlari natijasida yoshlar vakillari orasida yangi shakldagi maktablar, ommaviy axborot vositalarining vujudga keltirilganligi tufayli, demokratik taraqqiyotning dastlabki kurtaklari, xo'jalik yuritishning zamonaviy ko'rinishlari shakllana boshlagan. Iqtisodiy rivojlanish uchun muhim ahamiyat kasb etadigan sanoat korxonalarining, temir yo'l transportining, bank tizimining vujudga kelishi, ayniqsa Turkiston o'lkasida yengil sanoat korxonalarini tashkil topishi jadidlar tomonidan asoslangan fikrlar bilan hamohang jarayon bo'lgan.

Turkistonda XIX asrning so'ngi choragi va O'zbekistonda XX asrning birinchi yarmidagi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, mamlakat tarixida vujudga kelgan sanoat korxonalarini yangi avlodi, bank-moliya tizimining, ta'lim, jumladan oliy o'quv yurtlarining shakllanishi va rivojlanishi jadidlar tomonidan ilgari surilgan fikrlarning amaliyotdagi tasdig'i edi. Ta'kidlash lozimki jadidlar milliy iqtisodiyot asoslarining vujudga kelishni bevosita mustaqil taraqqiyot, mamlakatning suverenitetini qo'lga kiritish zaruriyati bilan chambarchas bog'lashgan. Jadidlarning iqtisodiy rivojlanishni ta'minlanishida salohiyatli, iqtidorli, vatanparvar kadrlar korpusini tayyorlash tizimini yaratish haqidagi konseptual g'oyalari hozirgi davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan, uzluksiz ta'lim sohasida olib borilayotgan zalvarli islohotlar maqsadi bilan hamohangdir. Yangi O'zbekiston milliy taraqqiyotini ta'minlash va uning rivoji uchun zarur bo'lgan munosib tadbirkor, bilimdon avlodni tarbiyalashda jadid mutafakkirlarining ma'naviy merosi yangicha falsafiy tafakkur tarzi shakllanishiga xizmat qiladi.

Demak, jadidchilik harakati namoyondalarining innovatsion ruhdagi g'oyalari halqni, yosh avlod vakillarini yuqori madaniyatli shaxs sifatidagi ma'naviy, axloqiy madaniyatga erishtirish pozitsiyasida bo'lgan, keyingi bosqichlarida ijtimoiy-siyosiy sharoit, milliy mustaqillik fikrlarining chuqurlashuviga xizmat qilgan. Jadidchilik harakatining keyingi bosqichlarida, jamiyatning barcha sohalari rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan ilg'or fikrlarning ilgari surilishi jarayoni kuzatiladi. Qayd etish lozimki, jadidchilik harakati vakillari intellektual faoliyati natijasida vujudga kelgan, ya'ni jamiyat taraqqiyotiga demokratik rivojlanish, inson qadri, shaxs ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari yechimiga, yoshlarning orzu istaklarining jamiyatda amalga oshirish mexanizmlarini yaratish zaruriyatining yechimi ta'lim bilan bog'liq ekanligi anglashi natijasida, mahalliy yoshlarning Germaniya va Turkiya kabi rivojlangan davlatlar oliy o'quv yurtlariga borib o'qib kelishi tufayli o'zgardi. [3.34]. Jamiyat taraqqiyotiga yangicha munosabatni shakllantirilgan fikrlar bilan qurollangan yoshlarning Turkistonga qaytib kelishi jadidchilik harakatini siyosiy jabhalarining yuksalishiga sabab bo'lgan. Jadidlar faoliyatidagi fikrlar mustamlakachilik rejimining maqsadi, mohiyati, amalga oshirilish mexanizmlarining tanqidini kuchaytirgan, bunday faoliyat provard natijada Turkistonda mustaqillik uchun kurash harakati kurtaklarini shakllantirgan va mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jadidlarning ijtimoiy-iqtisodiy g'oyalari va konseptual fikrlari ifodalangan merosini o'rganish xususan, xorijiy olimlar amerikaliklar Adib Xolid,[4] E.Olvort, [5.] germaniyalik I.Baldauf [6], yaponiyalik Hisao Komatsu [7] kabi sharqshunos, tarixchi olimlar tomonidan olib borilgan. Jadidchilik harakatining

namoyondalari ijodi, ularning ilmiy merosiga mansub asarlarning tadqiqi mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida R.Hodizoda, [8] N.Gafarov [9] kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ta'kidlash lozimki, yuqoridagi mualliflar asosan jadidlarning badiiy, dramatik asarlari, jamiyat tarixiga bag'ishlangan risolalari, kitoblari va ijtimoiy-siyosiy faoliyati mazmunini tahlil qilganlar. Shuningdek, O'zbekistonlik jamiyatshunos olimlardan Sh.Radjabov, [10] I.Mo'minov, [11] M.Fattayev, [12] D.Alimova, [13] D.Ziyayeva, [14] A.Aliyev, [15] B.Qosimov, [16] Sh.Rizayev, [17] G'.Maxmudov, [18] R.K.Rahimovlar [19] ilmiy tadqiqot ishlarida jadidlarning ijtimoiy, ma'naviy hayot masallariga bag'ishlangan tadqiqotlari, o'zbek jamiyatining rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tanqidiy qarashlari, jamiyat taraqqiyotiga yo'naltirilgan konseptual fikrlari mazmuni mustaqil yondoshuv asosida o'rganilgan.

METODLAR

Maqolani nashrga tayyorlashda, ilmiy manbalardan foydalanishda, materiallarni turkumlashtirishda va mustaqil xulosalarni umumlashtirish jarayonida falsafiy tadqiqotning tarixiylik, tanqidiylik, analiz, sintez metodlaridan foydalanildi. Maqolaning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari, Farmonlari, davlatimiz rahbarining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida bayon qilingan konseptual g'oyalar tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jadidlar merosini, milliy tariximiz, mamlakatimiz ma'naviy, ilmiy tarixidagi buyuk voqelik birinchi, ikkinchi Renessans davridagi ilmiy yutuqlar, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga mansub dunyoviy bilimlar mualliflari asarlarini chuqur tahlil qilish haqidagi tavsiyalari va uchinchi Renessans poydevorini yaratishga oid bag'ishlangan Qarorlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek jadidchilik xarakati namoyondalarining iqtisodiy qarashlari, fikrlarini tahlil qilish, mustaqil xulosalar chiqarish uchun, jadidizm mohiyatiga bag'ishlangan monografik tadqiqotlar, respublika masshtabida o'tkazilgan ilmiy amaliy konferensiyalar materiallari, ilmiy maqolalar, xorijlik olimlar asarlaridan foydalanildi. Jadidlarning iqtisodiy qarashlarini umumlashtirish maqsadida, ushbu tarixiy fenomen tadqiqiga bag'ishlangan, nufuzli jurnallarda e'lon qilingan maqolalar ilmiy manba sifatida olindi. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotining yangi davrida ommaviy axborot vositalari, jumladan internetda e'lon qilinyotgan, jadidchilik harakatining turli qirralari mazmunini ochib berishga qaratilgan fikrlar, O'zbekistonlik va xorijdagi faylasuflar, iqtisodchilarning mulohazalaridan foydalanildi.

OLINGAN NATIJALAR

Jadidchilik harakatining falsafa fani doirasida ijtimoiy, iqtisodiy, ma'rifiy, axloqiy, ma'naviy va estetik jihatlari Abdurauf Fitratning milliy uyg'onish va iqtisodiy yuksalish konsepsiyasi, ya'ni moddiylashuvining iqtisodiy, ma'rifiy, intellektual asoslarini "Hind sayyohi bayonati" asarida ochib bergan. Mahmudxo'ja Behbudiy qarashlarida ikkita muhim xususiyat ko'zga tashlanadi: bu mustahkam tarixiy hodisa hamda jahondagi ilg'or ma'rifatchilar ilmiy-nazariy merosini egallashga intilish, iqtisodiy bilimlarni chuqur o'rganish, uning natijalarini ijtimoiy hayotga tadbiiq qilish natijasida mamlakatni taraqqiyot yo'liga olib chiqish.

Abdurauf Fitrat "Hind sayyohi bayonati" asarida Buxoro amirligida mang'itlar sulolasidan meros qolgan qoloqlik, bid'at, ajnabiy fabrikantlar-u mahalliy boylar, savodsiz muftilar-u bir-birini g'ajishga tushgan mahalliy tojirlar, qora kunini "taqdiri ilohiy" deb bilgan omi kosib-u dehqonlarni qattiq tanqid qiladi, ularni islohotga chorlaydi, millat g'ururi, boyligi, hunarmandchiligi-yu amaliy san'atini asrashga va yuksaltirishga chaqiradi. Shu qatori, u Buxoro amirligiga qarashli yerlardan unumli foydalanish haqida jon kuydirib, "agar shu Shahrisabz yerlari Yapon elida bo'lganida edi, zar ekib, zar undirar edilar", deb yozadi. Bu o'rinda "Hind sayyohi bayonati" asarida ilgari surilgan masalalar shunchaki Movarounnahr doirasida emas, jahon miqyosida hal etilganligini ko'ramiz. Bu albatta, Fitratning iqtisodiy mazmundagi dunyoqarashi, el uchun kuyinishi, o'z halqi, iqtisodiy qoloqligi sabablarini chuqur idrok qila olganligidan dalolatdir.

Abdulxamid Cho'lpon millatni taraqqiy ettirish uchun ilm-u urfonning o'zi kifoya emasligi, balki buning uchun iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish zarurligini ta'kidlagan. 1914-yili "Sadoi Farg'ona" gazetasida e'lon qilingan "Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik", "Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar", "Oyina" jurnalida chop etilgan "Andijonda yangi bank" maqolalarida uning iqtisodiyot sohasidagi chuqur bilimi namoyon bo'lgan. Abdulhamid Cho'lpon o'z maqolalarida Rossiya, Yevropa va Amerikaning taraqqiyot tajribasidan misollar keltirib, Turkistonning bo'lajak iqtisodiyoti va uning rivojlanish yo'llari haqida mulohaza yuritgan.

Isoqxon Ibratning "Tarixi madaniyat" asarida esa mustaqil davlatning ham moddiy, ham ma'naviy zaminini yaratish muammosiga e'tibor qaratgan. Ushbu asarda iqtisodiy muammolardan yana biri oziq-ovqat sanoatini yo'lga qo'yish, mamlakatni rivojlantiruvchi tarmoqlardan biri-yengil

sanoatni rivojlantirishga doir muammolarga to'xtalgan, tog'-kon sanoatini yo'lga qo'yish haqida o'zining mustaqil mulohazalarini bildirgan. Ma'rifatparvar Isoqxon Ibrat risolada iqtisodiy muammolar bilan bir qatorda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, madaniy hayotini taraqqiy etishda ilm-fan, maorif va madaniyat ishlarini rivojlantirish zaruriyatiga alohida to'xtalgan va o'ziga xos iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi yaratgan.

MUHOKAMA

Jadidchilik - murakkab rivojlanish yo'lini, ya'ni ma'rifatparvarlikdan intellektual siyosiy salohiyatga ega bo'lgan harakatgacha bo'lgan bosqichni bosib o'tdi. Turkiston o'lkasining o'sha davrda iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlardan ortda qolishi va mustamlakachilikdan aziyat chekayotgan halqning og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli kabi holatlar Turkiston jadidlarini ijtimoiy taraqqiyotning innovatsion yo'lini kashf etishga undadi. O'z davrining ziyolilari vujudga kelgan vaziyatda mamlakat qoloqligining tub sababini ma'rifatsizlikda deb bildilar. Aynan ma'rifatsizlik tufayli hukm surgan jaholatni bartaraf etishda maorif va ma'rifat yo'li tanlashdi. Natijada jadidchilik xarakati yo'lbo'shchilari asosiy e'tiborni maorifni isloh qilishga qaratdilar. Ushbu ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda yangi usulda o'qitiladigan maktablar, kutubxonalar, qirotxonalar barpo etib, ularni o'quv darsliklari va qo'llanmalar bilan ta'minlash bilan birga ma'rifatparvarlik g'oyalarini yosh avlodga singdirish uchun faoliyat olib bordilar. Ma'rifat g'oyalari mazmuni, mamlakatni qoloqlikdan qutqarishning asosiy ildizi iqtisodiy rivojlanish, odamlar ongida iqtisodiy ong va mustaqil iqtisodiyotni shakllantirish uchun zarur bo'lgan fikrni shakllantirish jarayoni bilan uzviy bog'liq edi.

Turkiston o'lkasidagi, ya'ni mustamlakachilik siyosati bilan bog'liq bo'lgan, muayyan darajada uning maqsadlariga xizmat qilgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bu hududda jadidchilik harakatining paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib keldi. Jadidchilik fenomeni shu davrdagi dastlabki sanoat korxonalari, temir yo'l transporti, moliya bank tizimi va qishloq xo'jaligining rivojlanishi bilan bog'liqligini e'tirof etish zarur.

Jadidlarning iqtisodiy mazmun kasb etgan g'oyasida ikki masala o'z aksini topgan:

Halqimizni jahonning iqtisodiy jihatidan taraqqiy etgan yetakchi davlatlar darajasiga ko'tarish yo'lini qidirib topish uchun harakat qilish;

Turkiston iqtisodiy rivojlanishining siyosiy, huquqiy asosi bo'lgan milliy mustaqillikka erishishini ta'minlash.

Jadidlarning davlat tizimi va jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti haqidagi ilmiy qarashlarida bu ikki masala bir-biri bilan uzviy bog'lanib ketgan. Chunki millat ma'rifatli bo'lishi uchun mustaqil taraqqiyotga, milliy davlat tizimiga ega bo'lmog'i lozim. Mustaqil davlat bo'lish uchun esa millat yoshlari ilm-ma'rifatni, dunyoviy bilimlarni puxta egallashi lozim edi. Jadidlar, bir tomondan, Vatan mustaqilligi uchun kurash olib bordilar. Ikkinchi tomondan, ular demokratik davlat qurish g'oyasini ilgari surdilar. Bu kurash jadidchilik harakatining asosini tashkil qildi. Shuningdek, jadidchilik ma'rifatparvarligida milliy iqtisodiyot asosini vujudga keltirish va uni rivojlantirish masalalari ham muhim o'rin tutgan.

Jadidlar orasidan yetuk faylasuf olimlar, sanoat va ziroatchilik sohaslarining zamonaviy bilimdon mutaxassisleri, arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda fidoyilarcha kurashdilar.

Ta'kidlash lozimki, Vatanimiz va halqimiz mustaqilligi uchun barcha imkoniyatlarini ishga solgan, ilmiy va tashkilotchilik salohiyati bilan kurashganlardan biri Abdurauf Fitratdir.

Abdurauf Fitrat Turkistonni mustaqil iqtisodiy taraqqiyot yo'liga olib chiqishning ikki yo'lini taklif etadi va bu g'oyani ro'yobga chiqarish yo'lida sobit qadamlik bilan fikr yuritadi. Mutafakkir fikricha mustaqillikka erishining birinchi yo'li millatni, halqni o'qimishli, ma'rifatli qilish, uning barcha qatlamlariga tarqatish, tarixan doimo ozod va mustaqil yashashga intilish ruhiyatini unga singdirish, dunyo halqlari erishgan ma'rifat va madaniyatdan, ilmiy-texnik taraqqiyotdan bahramand bo'lishdir. Shuningdek, vatandoshlarda Vatan taqdiri va istiqboli uchun mas'ullik hissini uyg'otish, metropoliya iqtisodiyotiga xom ashyo yetkazib beruvchi makon bo'lib qolmaslikka chaqirish, uning uchun iqtisodiy tafakkur, fikrlash tuyg'usini uyg'otishdir. Ikkinchi yo'l Turkistonning o'z milliy iqtisodiyotini vujudga keltirish, jahon iqtisodiyoti bilan iqtisodiy tenglik va o'zaro manfaatdorlik tamoyili asosida iqtisodiy hamkorlikka, integratsiyaga kirishishdir.

Jonkuyar vatanparvar bo'lgan Abdurauf Fitrat o'zi taklif etgan milliy uyg'onish va iqtisodiy yuksalish konsepsiyasini amalda moddiylashuvining iqtisodiy, ma'rifiy, intellektual omillarini ham asoslab berdi. Uning "Hind sayyohi bayonoti" asari ana shu iqtisodiy g'oyasini ilgari surgan edi. Bu

asarda Turkiston zamini tabiiy xom ashyo manbalariga juda boy ekanligi, ular hozircha foydalanilmaganligi, bu yer osti boyliklarini o'zlashtirish, milliy hunarmandchilikni jahonning ilg'or mamlakatlaridan texnologiya keltirib zamonaviy asosda tubdan qayta qurish, xorijiy sarmoya, ilm-fan, texnika-texnologiya yutuqlarini milliy iqtisodiyot tizimiga dadil jalb etish kabi ilg'or iqtisodiy qarashlarni asoslab berdi. [20. 45-46].

Jadidlarning mustaqil davlat tuzish haqidagi g'oyalari tarkibida iqtisodiy qarashlari alohida ajralib turadi. Jadidlar Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi, o'lkadagi tabiiy resurslarning talon-taroj qilinishi, xom ashyo manbaiga va tayyor mahsulotlar sotiladigan bozorga aylantirilishi, o'lkada istiqomat qilayotgan halqning qashshoqlanishining asosiy sababi ekanligini ko'rsatib berdilar. O'lkada vujudga kelgan iqtisodiy sharoitning obyektiv baholanishi, yurtning iqtisodiy mustaqilligiga erishish uchun kurashishi harakatini shakllantirgan asosiy omillardan hisoblanadi.

Mustamlaka ma'muriyati 1886, 1891, 1902 va 1906-yillarda vaqf mulkiga doir masalalar bo'yicha chor Rossiyasining manfaatlariga moslashtiruvchi nizomlar ishlab chiqish orqali, turkistonliklarning undan foydalanish mexanizmlarini chegaralab qo'ydi. Qabul qilingan hujjatlar mustamlakachilar manfaatiga xizmat qilishga mo'ljallangan edi. Jumladan, shu davrgacha vaqf mulklari rasmiylashtirilgan qonun hujjatlarning aksariyat qismi soxta deb hisoblanib, bekor qilindi. Ushbu hujjatlarning rasmiy tan olingan mulkdorlari ham o'z mulklarining muayyan qismidan ajraldilar. Bunday bosqinchilik siyosati, mulkdorlarni o'zlariga mansub bo'lgan yer resurslaridan daromad olish imkoniyatidan mahrum qildi. Vaqf mulklarini ijaraga berish ham mustamlaka ma'muriyati ixtiyoriga o'tdi, daromadlarni taqsimlashni maxalliy boshqaruv hokimiyati o'z nazoratiga oldi.

Mustamlakachi hukumatining bunday qatag'on siyosati, vaqf daromadi hisobiga tirikchilik qilayotgan tashkilotlar, maktablar, shuningdek kambag'allarning turmushida keskin norozilik vaziyatni vujudga keltirdi. Vaqf yerlarining qisqartirilishi, ularning mustamlaka ma'muriyati nazoratiga olinishi diniy muassasalarning iqtisodiy ahvolini zaiflashtirdi [21.18].

Turkiston halqining mashaqqatli mehnat qilishiga qaramasdan, qashshoqlikda yashab kelayotganligining, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning sabablarini tahlil qilishga harakat qilgan ma'rifatparvarlardan biri ham Mahmudxo'ja Behbudiy edi. Ta'kidlash lozimki, Mahmudxo'ja Behbudiy XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi iqtisodiy vaziyatni, odamlarning ijtimoiy ahvolini o'rganib, Turkiston halqlarining qashshoqlikda yashashining asosiy sababi Chor Rossiyasining olib borgan mustamlakachilik siyosati ekanligini ta'kidlagan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning 1908-yilda "Shuhrat" gazetasida e'lon qilingan "Yoshlarga murojaat" maqolalaridan birida tub aholi vakillaridan bo'lgan injener (muhandis)lar, shifokorlar, qonunshunoslar, iqtisodchilar tayyorlash uchun yoshlarni xorijiy mamlakatlarga yuborish lozimligi ta'kidlagan edi. Muamoning yechimiga bunday munosabat bevosita Turkistonlik yoshlarning dunyoviy bilimlarning asosini o'rganishlari lozimligi ta'kidlandi. Iqtidorli yoshlarni xorijiy mamlakatlar universitetlariga o'qish uchun yuborish zaruriyati, ushbu o'quv yurtlaridagi shakllantirilgan ilg'or o'quv uslubi, ya'ni yuqori malakali mutaxassislar yetishtirishga qaratilgan ta'lim jarayoni mavjudligi, yetakchi professorlar uchun yaratilgan shart-sharoit edi.

Mahmudxo'ja Behbudiy "Tarix va jo'g'rofiya" asarida bunday deb yozgan edi: "Dunyoga ishonmoq uchun, komil va odil bo'lmoq uchun tarixni o'qimoq va bilmoq kerak. Podsho-yu vazir, hukumat odamlari va siyosiy kishilar uchun tarix o'qimoq kerak. Past qolgan va yo taraqqiy qilgan halqlarni, jahongir bo'lgan davlat yo nopadid (mustamlaka) bo'lgan davlatlarni bilmoq uchun tarixni o'qimoq kerak. Musulmonlik qanday ko'paydi va taraqqiy etdi va ol xol na uchun musulmonlar tanazzul etdilar? Buni bilmoq uchun tarix o'qimoq kerak. Xulosa dinu dunyodan boxabar bo'lmoqni xohlaydigan har kim uchun tarix o'qimoq kerak. Chunki har nima bo'lsa va shuning asli va nasli tarixdan bilinur"[22.55].

Jadidlarning iqtisodiy qarashlari mazmuni va mohiyati izohida, iqtisodiy rivojlanishning obyektiv zaruriyati haqida, 1913-yilda "Turkiston ovozi" va "Golos Turkistana" gazetalarda keltirilgan uchta yo'nalishdagi mustaqil fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Turkistondan Sibirga olib boradigan temir yo'lda Afg'oniston va Erongacha bo'lgan hududda yashayotgan halqlar bilan Rossiyaliklar orasida huquqiy munosabatlar va belgilangan soliqlar tizimida ijtimoiy tenglikni vujudga keltirish maqsadga muvofiqligini ta'kidlashgan.

Turkiston o'lkasidagi chorvadorlar, ya'ni ko'chmanchi hayot kechiruvchilarga qishloq va shaharlardan joylar bo'lib berilgunga qadar, o'lkaga boshqa hududlardan ko'chib kelayotganlarga yer bermaslik.

Turkistonliklar orasida ilg'or iqtisodiy taraqqiyotni tarannum etuvchi fikrlarga asoslangan, zamonaviy ijtimoiy hayot mazmuni haqidagi g'oyalarni, ma'rifatni tarqatish.

Jadidlar Turkistonliklar uchun yer va suv resurslaridan unumli foydalanish, iqtisodiy mazmun kasb etadigan masala ekanligini yaxshi anglaganlar. Shu sababli yerga xususiy mulkchilik joriy etishni zarur deb hisoblaganlar.

Ta'kidlash lozimki jadidlarning iqtisodiy qarashlari mazmunida, inson tafakkuridagi iqtisodiy fikrlarni shakllantirish muhimligiga ishora qilingan. Jumladan, Maxmudxo'ja Behbudiy "Nima bizni kemirayapti va orqag'a tortayapti?" deb nomlangan maqolasida jamiyatni orqaga tortuvchi sabablardan biri, dabdabali to'y va dafn marosimlari deb hisoblaydi. Mutafakkir fikricha, butunlay ortiqcha rasm-rusumlar va ularga ketadigan sarf-xarajatlardan voz kechish maqsadga muvofiqdir. "... biz-turkistoniylarni shahri va qishloqi, yoyinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinflarimizg'acha istilo etib, butun tiriklimizg'a sorilg'on va bizni inqirozga va tahlikaga va jahannamga yumalataturg'on to'y, aza ismindagi ikki qattol dushmani derman" [23.189]. Mahmudxo'ja Behbudiy Qur'oni karim va muqaddas Hadislarga asoslanib, oilalarni xonavayron bo'lishiga olib keluvchi shu kabi hodisalarning keraksizligini tushuntirib berdi. Ushbu ijtimoiy, tarbiyaviy, iqtisodiy ahamiyat kasb etuvchi qarashlar hozirgi davrda, jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jadidchilik xarakterining yirik vakillaridan biri Abdulxamid Cho'lpon vatanining fidoyi, halqparvar farzandi sifatida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga o'z munosabatini maqolalarida bildirgan. Abdulhamid Cho'lpon Vatanni, millatni sevgan, uning iqtisodiy manfaatlari himoyasi uchun kurashgan vatanparvar edi. Jumladan, Turkistonda temir yo'llar qurilishini ijobiy baholagani holda, bundan kelib chiqayotgan salbiy jihatlarini ham ko'rsatib beradi. Ma'rifatparvar Abdulxamid Cho'lpon temir yo'l qurilishi tufayli aholi vokzal, stansiyalar barpo qilish uchun o'z yerlarini arzon-garovga sotib, markazlardan uzoqlashib, qashshoqlikka mahkum bo'layotganini, ular o'rnini ko'chib kelayotgan aholi egallayotganligini kuyunib yozgan.

Abdulxamid Cho'lponning Vatan, ona yer haqidagi qarashlari g'oyat ibratli va ta'sirchandır: "...Vatan tuproqi shundog' onadurki, buni xor qilduk, o'zimizning ham xor bo'lmoqimiz ko'z oldidatur... Tuproqdan yaratilduk, demak tuproq tanimizdir, o'z tanimizni o'zimiz sotsak, beaqlik emasmu? Ajabo!!!..." Yer resurslaridan ratsional foydalanishga qaratilgan bunday da'vat, tabiiy resurslarning inson hayoti va iqtisodiy faoliyatidagi ahamiyati, milliy boylik yaratilishidagi asosiy manba, millat, yosh avlodning kelajagini ta'minlaydigan omil ekanligiga ishora qiladi.

Taraqqiyparvar Abdulxamid Cho'lpon milliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar himoyachisi bo'lib maydonga chiqdi: "... Ey qarindoshlar... katta iltimosimiz shuldurki, Ovrupaning mo'dasidan, shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bunlarga taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, sanoatga o'xshashlik madaniyatlardan namuno olub, bul jihatdan taqlid qilmoqimiz lozidur. Ovrupaning mo'dasi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir-qul qiladur. Bundan saqlaningiz!!!" [24.].

Abdulxamid Cho'lpon jadid ma'rifatchisi sifatida millatni taraqqiy ettirish uchun ilmu urfonning o'zi kifoya emasligi, balki buning uchun iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish zarurligini tushuna boshlaydi.

Turkistonda iqtisodiy taraqqiyotga, farovon va obod yashashga olib keluvchi boshqa yo'llar borligi haqida Abdurauf Fitrat ham o'zining "Hind sayyohi bayonati" asarida yozgan. Ana shulardan biri "ihroj sanoati", ya'ni yer osti boyliklarini qazib olish va "a'mol sanoati", ya'ni uskunalar (fabrika va zavodlar) yaratishdir.

Turkiston o'lkasi bag'rida oltin, mis, temir, neft, gaz, toshko'mir va boshqa tabiiy boyliklar mavjudligini, ularni ishga solish orqali halq qashshoqlikdan, iqtisodiy qaramlikdan xalos bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Ma'rifatparvar Ishoqxon Ibrat chin qalbdan o'z halqining ilmi, ma'rifatli bo'lishini istadi. 1916-yili yozilgan "Tarixi madaniyat", "Devoni Ibrat", "Lug'ati sittati alsina", "Jome' ul-xutut", "Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat" va "Mezon uz-zamon" asarlarida milliy ozodlik, mustaqil iqtisodiy rivojlanish fikrlari mavjud. Jumladan, ma'rifatparvar shoir, tilshunos, tarixshunos olim Ishoqxon Ibratning "Tarixi madaniyat" risolasida mamlakatni tog'-kon sanoatini yo'lga qo'yish kerakligi haqida o'z qarashlarini bildirgan. Chunonchi, bu konlarni ishga tushirish orqali xorij talablariga mos ravishda mahsulot ishlab chiqarish va bu mahsulotlarni sotish orqali mamlakat iqtisodiyotini ta'minlash hamda mamlakatni jahonga tanitish taklifi bilan chiqadi: "Mana tog'larimizda bo'lsa oltindan boshlab kumush, mis, temir, cho'yan va qo'rg'oshimgacha bor, joy-rangvor bo'ladurg'on nimanarsalardan konlar ko'p. Qorazakiy

bir tog' butun ... achchiq toshlar va dahanfarang nimanarsalarni koni bor. ...Bu konlarni bag'rimizga bosib yotub, tasarrufini qilolmasak bizga ancha nuqson bo'lgur edi" [25.128]. Isoqxon Ibrat asarida mamlakat taraqqiyotining ma'naviy zaminiga e'tibor qaratadi. Mutafakkir risolada mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, madaniy hayotini izga solishda ilm-fan, maorif va madaniyat ishlarini yo'lga qo'yish zaruriyatini ta'kidlaydi, zavod va fabrikalarda ishlab chiqarish uchun zaruriy ta'lim muassasa sifatida hunar maktablarini tashkil etish lozimligini ta'kidlagan. Bu davrda hunar maktablari zaruriyati mamlakatdagi milliy sanoatning tarmoqlari: kichik korxonalar, fabrika va zavodlarda ishchi kuchi, kadrlar kerak edi. Shu sababli, bularga kerakli kadrlar yetishtirish uchun hunar maktablarni tashkil etish orqali mamlakatning sanoat tarmog'idagi kadrlarga bo'lgan ehtiyojni bartaraf etish mumkin deb hisoblagan.

Isoqxon Ibratning "Tarixi madaniyat" asarida mustaqil davlatning ham moddiy, ham ma'naviy zaminini yaratish muammosiga e'tibor qaratilgan. Risolada Isoqxon Ibrat davlat taraqqiyotining moddiy asosi mahalliy sanoatni rivojlantirish, sug'orish inshootlarini qurish, mamlakatda qishloq xo'jaligini yuritish, ichki va tashqi savdoni yo'lga qo'yish, mamlakatdagi foydali qazilmalar, ularni qayta ishlab tayyor mahsulot chiqarishni o'zida tashkil etish, xorijga xom ashyo o'rniga tayyor mahsulot chiqarishga erishish muammolari bo'lsa, davlat taraqqiyotining ma'naviy zamini sifatida maktablar tashkil etish, hunar-texnika maktablari, kechki maktablar, oliy o'quv yurtlari, ilmiy tadqiqot institutlari tashkil qilish, nashriyotlar, turli ixtisoslikka, jumladan muhandislikka oid firmalar tashkil etish kabi masalalarni ko'tarib chiqqan. Jumladan, mutafakkir halqimizni xorij firmalari ishbilarmonlari va tadbirkorlari tajribasidan o'rganishga chaqirgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, jadidlarning iqtisodiy qarashlari natijasida O'zbekistonda dunyoviy, iqtisodiy bilimlar, ishlab chiqarish texnologiyalari, tadbirkorlik, hunar maktablari rivojlanishiga sabab bo'ldi. Jadidchilarning innovatsion mazmundagi g'oyalari, jamiyat taraqqiyotida ilg'or nazariyalarga asoslangan fan rivoji, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida ona Vatan istiqbolini ta'minlashga xizmat qiladigan ilg'or fikrlar, buyuk kelajakni ta'minlashga qaratilgan maqsadlar mujassam ekanini ko'ramiz. "Jadidchilik harakatining vakillari Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriydek ma'rifatparvar adib va olimlar olamshumul ilmiy kashfiyotlarini, o'lmas badiiy asarlarini yaratganlar".[26].

Jadidlarning konseptual falsafiy g'oyalari hozirgi innovatsion o'zgarishlarning darakchisi, bugungi kundagi strategiya yo'nalishdagi demokratik islohotlarning genetik asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki ularning iqtisodiy ahamiyat kasb etadigan g'oyalari, qarashlari umuminsoniy xususiyatlarni asosan erk, ozodlik, adolat, mustaqillik kabi g'oyalar uyg'unligidan iboratdir. Jamiyat taraqqiyotiga bunday innovatsion yondashuv jadidchilik harakati namoyondalari mamlakatimiz mustaqillikka erishishiga g'oyaviy asos bo'lgan nazariyalarni ilgari surganligidan dalolatdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent.: "O'zbekiston", 2021-yil, 464-bet
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi// Halq so'zi, 2020-yil 1-oktabr, № 207 (7709) soni.
3. Turdiyev Sh. Ular Germaniyada o'qigan edilar. -Toshkent.: Akadem - Xizmat, 2006. -B.34.
4. Adeeb Khalid. Central Asia: A New History from the Imperial Conquests to the Present. The USA. 2021. 576 pages.
5. Edward A. Allworth. Evading Reality: The Devices of Abdalrauf Fitrat, Modern Central Asian Reformist. Boston.: Brill Leiden. 367 pages.
6. Baldauf Ingeborg. Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World // Die Welt des Islams, New Ser. Vol.41, Issue 1. (Mar., 2001).
7. Komatsu Hisao. Revolutionary Central Asia: A Portrait of Abdurauf Fitrat], Tokyo: University of Tokyo Press, 312pp.
8. Rasul Xodizoda. To ne zvezdi padayut : Ist. roman /. - Dushanbe : Adib, 1991. - 431.
9. Gafarov N.U. Knigotorgoviye tovarishestva djadidov v Sredney Azii. Vestnik RTSU. №3 (38) 2012.
10. Radjabov Sh. Djadidizm i Turkestane (1905—1917 gg.). Tezisi na dissertatsii na sois. uch. st. kand. ist. nauk.-Leningrad, 1937.
11. Muminov I.M. Iz istorii razvitiya obshestvenno-politicheskoy misli v Uzbekistane konsa XIX- nachalo XX vv.-Tashkent, 1957.
12. Fattoyev M. Atoqli pedagoglarimiz. - Toshkent: O'qituvchi, 1988. -50 b.
13. Alimova D. Djadidizm v Sredney Azii. Puti obnovleniya, reformi, borba za nezavisimost. - Toshkent: O'zbekiston. 2000. -24 c.
14. Ziyoyeva D. Turkiston milliy ozodlik harakati. - Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 2000. -175 b.
15. Aliyev A. "Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat" (Vatan fidoyilari). - Toshkent: Akademiya, 2000. -630 b.
16. Qosimov B. Ismoilbek Gasprali. - Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1992. - 48 b.

FALSAFA-SIYOSAT

17. Rizayev Sh.T. O'zbek jadid dramaturgiyasining shakllanishi manbalari: fil. fan. nomzodi diss. Avtoref: - Toshkent: 1995. -28 b.
18. Mahmudov G'. Jadid adabiyotida milliy istiqlol mavzusi.-Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 102 b.
19. Raximov R. K. Jadidlar iqtisodiy g'oyalari va ularning bozor munosabatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Andijon, 2010.
20. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-jild. Hind sayyohi bayonoti.-T.: Ma'naviyat, 2000.
21. Ziyoyev X. Jadidlar harakatining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy zamini (XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asrning boshlari) // Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent.: Universitet, 1999. -B.18.
22. Alimova D. Xaqiqatning tutash manzili // Tafakkur.-Toshkent, 2000.-№ 2.-B.55
23. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Biznikemirguvchi illatlar. -T.: Ma'naviyat, 1999.-B. 189
24. Cho'lpon A. Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar // Sadoi Farg'ona. -1914 yil, 6 iyun.
25. Ibrat I. Tarixi madaniyat. O'z RFASHI.Q. inv № 11616, № 10117. B 128.
26. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // 2021-yil 1-iyul. www.uzbekistan.org.ua/uz/